

**PZ-20170926459-Navoiyshunoslik tarixi (XX – XXI asrlar) nomli
amaliy loyiha**

Loyiha rahbari: f.f.n, dotsent, Mullaxo‘jayeva Karomat Toshxodjayevna.

Loyihaning maqsadi: XX asrda dunyo sharqshunos olimlarining Navoiy hayoti va ijodi bilan bog‘liq bir yoqlama fikrlari, ayrim noto‘g‘ri talqinlar oqibatida bugun ham shoir haqida o‘sha paytlari aytilgan fikrlar asosidagi tasavvurlar saqlanib qolganligi ularni o‘zgartirishga, ularga xolis munosabat bildirishga, dunyo afkor ommasining Navoiyga munosabatini to‘g‘irlashga bo‘lgan istak-ehtiyojni kuchaytirmoqda. Ikkinchidan, o‘tgan yillar mobaynida, aytish mumkinki, o‘zbek navoiyshunosligining o‘ziga xos yo‘nalishlari shakllandı. Loyihaning qisqacha tavsifi: Ma’lumki, o‘zbek adabiyotida navoiyshunoslik XX asrning boshlaridan boshlab tizimli asosda o‘rganishga kirishildi. Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi arafasida maxsus komissiya tomonidan adib asarlarining joriy alifboga nashri amalga oshirildi, “Xamsa” dostonlarining nasriy bayonlari tayyorlandi.

Navoiyshunoslik bibliografiyasini yaratish, navoiyshunoslik antologiyasini yaratish, loyiha mavzusi diorasida konferensiyalar tashkil etish, loyiha doirasida monografiya, ilmiy maqolalar chop etish ishning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bibliografiya oliy ta’lim bosqichlarining filologiya fakultetlari, adabiyotshunos olimlar, doktorant va ilmiy izlanish olib borayotgan soha vakillari uchun qimmatli manba bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek xalqining o‘z kechmish yo‘li, adabiy merosi, ma’naviy qadriyatlarini o‘rganishda qo‘llanma vazifasini o‘taydi. Turli adabiy jarayonlarning vujudga kelishi, taraqqiyot qonuniyatları, adabiy ta’sir, hamkorlik aloqalari, boy ijodiy merosimiz haqida keng ma’lumotga ega bo‘ladilar.